



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy
Telefon: (871) 200-43-43, e-mail: info@uzpsb.uz, web-site: www.uzpsb.uz

"TASDIQLAYMAN"

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Komplayens-nazorat
departamenti direktori A.Yoqubjonov

**"O'zsanoatqurilishbank" ATB, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
bilan birgalikda o'tkazilgan "Korrupsiya va uning oqibatlari - korrupsiyaga qarshi
kurashishda amalga oshirilgan ishlar" mavzusidagi tadbiri"**
YIG'ILISH BAYONI

2024-yil 7-noyabr

Guliston shahri

Ochiq eshiklar kuni" tadbirida
ishtirok etishdi:

Sirdaryo viloyati mintaqaviy BXO J.Atabekov

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi vakili

O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi,
korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi
vakili

Cert Internatinal vakili

Tijorat banklari vakillari

Bank hududiy tarkibiy bo'linmalari xodimlari
OAV va jurnalistlar

Tadbiri Sirdaryo viloyati mintaqaviy BXO J.Atabekovning kirish so'zi bilan boshlandi;
So'ng tadbir dasturiga muvofiq so'z O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi boshlig'i X.Tursunbekovga,
O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining Korrupsiyani oldini

olish va Komplaens tizimini joriy etish boshqarmasi yetakchi inspektori M.Rasulovga, "Cert International" sertifikatсион organ vakili I.Ineleevga berildi.

Ma'ruzachilar o'z ma'ruzalarida Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik, O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablari, manfaatlar to'qnashuvi holatlari, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari, ISO 37001:2016 Xalqaro standar talablari, ushbu standartni joriy etishdan maqsad, bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ushbu xalqaro standartga to'liq muvofiqligi haqida batafsil tadbir ishtirokchilariga ma'lumot berildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar, aloqa kanallari orqali kelgan har bir relevant xabarlariga asosan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari va ushbu tekshiruvlar natijasida aniqlangan qoidabuzarliklar hamda ushbu qoidabuzarliklarni sodir etgan xodimlarga nisbatan qo'llanilgan choralar haqida ma'lumot berildi.

Tadbir davomida bank tizimida korrupsiyaga oid shubhali ma'lumotlarni qabul qilishga mo'ljallangan maxsus aloqa kanallari uzluksiz ravishda faoliyat yuritayotganligi;

Korrupsiyaviy va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar haqida mazkur aloqa kanallari orqali xabar berish mumkinligi, barcha kelib tushgan murojaatlar ko'rib chiqilishi, bunda xabar bergan xodim ta'qibga olinmasligi kafolati mavjudligi haqida bildirib o'tildi.

Bank xodimlari va mijozlarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallari ko'lamini kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, tadbir davomida ishtirokchilar orasida so'rovnoma o'tkazilib (68 nafar fuqarolar orasida o'tkazildi), natijasi bo'yicha quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1) Bugungi kunda bank xizmatlarini ko'rsatishda bank xodimlarining xatti-xarakatlarida korrupsiyaviy xarakatlariga beruvchi omillar mavjudmi degan savolga 68 nafar fuqarolar "Yo'q" deb (100%);

2) Navbatdan tashqari bank xizmatlarini ko'rsatish holatlari mavjudmi degan savolga 65 nafar (95,5%) "Yo'q" deb, 3 nafar fuqarolar "Bor" (4,5%) deb;

3) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aloqa kanallari to'g'risida ma'lumotga egamisiz degan savolga 45 nafar "HA" (66,1%) deb, 23 nafar fuqarolar "Yo'q" (33,9%) deb;

4) Bankdan naqd pul olishda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy xarakatlarga guvoh bo'lganmisiz degan savolga 68 nafar fuqarolar "Yo'q" deb (100%);

5) Bank xodimlari bank xizmatlarini ko'rsatishda umum qabul qilingan muomala madaniyatiga qay darajada rioya etishadi degan savolga 68 nafar fuqarolar "Yaxshi" deb (100%);

Korrupsiyaga qarshi
kurashish maxsus boshqarmasi
menejeri



A.Kurbanov